

## **QADAMLI DVIGATELNI DASTURIY BOSHQARUV REJIMLARINING TAHLILI**

F. J. Xudoinazarov

I. Sh. Annayev

### **KIRISH**

Avtomatik boshqaruv tizimini tashkil etishda zaruriy asosiy qurilmalar sifatida birlamchi o'lchov asboblari – datchiklardan foydalaniladi. Datchiklar ishlatilish sohasi, o'lchanayotgan parametr va ishchi muhitiga qarab turli xilda bo'lishi mumkin. Ishlab chiqarishda harorat datchiklari, bosimni o'lhash datchiklari, sathni o'lhash dachiklari, sarfni o'lhash datchiklari va moddaning zichligi, yopishqoqligi, elektr o'tkazuvchanligi hamda turli xildagi fizik va himiyaviy axamiyatdagi labaratoriya analizi datchiklaridan keng ko'lamda foydalaniladi.

Hozirgi kunda elektronik qurilmalardan foydalanilmaydingan sohaning o'zi yo'q bo'lsa kerak. Elektronik, ayniqsa mikroelektronik qurilmalarning hozirgi yanada rivojlanib, takominlashib borayotgan axborot asrida ularning o'rni beqiyosdir. Ulardan ishlab chiqarishning barcha sohalarida: transportda, mashinasozlikda, radiotexnikada, televideniya, telekomunikatsiya apparatlarida, kompyuter sohasida, turmush hayotimizdagi maishiy texnika vositalarida va boshqa bir necha sohalarda ularning o'rni almashtirib bo'lmas darajada foydalanib kelinmoqda.




**Asosiy qism.** O'tgan asrning oxiri o'n yilliklarida elektroavtomatika va hisoblash texnikasining zamонавиъи vositalari ishlab chiqarish mashinalarining elektryuritmalarini dasturli boshqarishning raqamli tizimlarini yaratish imkonini berdi. Bu tizimlarda elektryuritmalarining ish rejimlari xaqida oldindan tayyorlab qo'yilgan ish faoliyati ketma-ketligi, ishchi organlarning harakatlanishi qoidalari xaqida berilganlar boshqaruv tizimiga raqamlar to'plami ko'rinishida kiritiladi. Raqamlashtirilgan dasturli boshqaruv (RDB) tizimlari ikki guruhdan iborat.

Holatni boshqaruv tizimlar ishlab chiqarish mashinalarining ishchi organlarini berilgan holat va chegaralar bo'yicha harakatlanishini tahminlaydi. Bunda harkatlanish chizig'ini ishlab chiqarish unumdorligini va boshqaruv tizimini soddalashtirishni hisobga olish tanlab olinishi mumkin. Xususan, masalan, koordinata o'qlarining biri bo'yicha, belgilangan kattalikkka qisqa vaqtlar ichida ortiqcha tezliksiz harakatni tadbiq etish mumkin.

Harakatni (konturni) boshqaruv tizimlari ishchi organlarni murakkab, aksariyat hollarda esa egri chiziqli kontur bo'ylab tinimsiz ravishda boshqaruvni taqozo etadi.

Bu tizimlar universal bo‘lib, holatni boshqarish zarurati tug‘ilgan paytlarda ham qo‘llanilishi mumkin.

Bunday dvigatellar RDB stanoklar surish yuritmalarida keng qo‘llanadi. U jamlangan chulg‘amli reaktiv rotorli sinxron mashinadir. MDH davlatlarida ishlab chiqarilgan metall kesish stanoklar surish yuritmalarini uchun qadamli dvigatellar (ShD-4, ShD-5) uch fazali sxema bo‘yicha quriladi. Bunday dvigatelning ishlash prinsipi quyidagicha. Stator (1) (1 a-rasm) uch juft qutb va chulg‘amlarga (I-III) ega. Rotor (2) ham uchta seksiyaga bo‘lingan, lekin ular aylana bo‘yicha qutb oralig‘i masofasining 1/3 qismiga siljutilgan. Shunday qilib rotoring birinchi seksiyasi qutbi stator qutbi bilan to‘g‘ri turadi, ikkinchi seksiya qutbi stator qutbiga nisbatan 1/3 qismiga, uchinchi seksiya qutbi esa qutb oralig‘i masofasining 2/3 qismiga siljigan bo‘ladi.



### 1-rasm. Qadamlı dvigatel:

a – qo‘rilma; b, d – ishlash prinsipi

Agar statorning birinchi faza chulg‘amiga (I) doimiy tok ulansa dvigatel rotorini shunday holatni egallaydiki, bunda rotoring birinchi seksiya qutbi stator qutbining

qarshisida o‘rnataladi. Agar so‘ngra birinchi fazadagi tokni uzib, ikkinchi fazaga tok berilsa, rotor 1/3 qadamga buriladi (2.5,*b*-rasm).


I, II, III obmatkalarga ketma-ket tok berilsa, rotor soat strelkasi bo‘yicha aylanadi. Agar fazalarni teskari tartibda tokka ulansa rotor teskari tarafga aylanadi.

Rotoring burilish burchagi 1,5<sup>0</sup> yoki 3<sup>0</sup> ni tashkil qilishi mumkin, olti kontaktli qo‘shgich bilan jihozlangan ShD-4 dvigatelida impulslarining maksimal chastotasi 800 Gs. Bunday dvigatel impuls miqdori 0,01 mm bo‘lganda 1200 mm/min gacha surish tezligini ta’minlaydi. Hozirgi vaqtida katta chastotali tok impulsiga ega qadamli dvigatellar ishlab chiqarilmoqda, ular 5-10 m/min surish tezligini ta’minlay oladi.

Dastlabki avlod EHM larida dastur tashuvchi vazifasini perforatsiyalangan tasmalar va kartalar, magnit temsilar bajarar edi. Hozirgi zamonaviy komppterlarda disketa, kompakt disk, EHM xotira, lakal va global tarmoqlaridan foydalaniladi.

Chig‘irlash mashinasini yordamida metallarni yoyib jo‘valovchi qismini mexanizmi elektryuritmasini raqamli dasturiy boshqaruv tizimini misol tariqasida ko‘rib chiqaylik.

Metal ishchi juvalardan har safar o‘tkazilgach, juvalar orasidagi qorishmani chig‘irlash dasturiga mos holda almashtirilishi lozim. Bunday jarayon yuqori qismida joylashgan juvani o‘rnini o‘zgartiruvchi mexanizm yordamida amalga oshiriladi. Bu mexanizmning yuritmasi o‘zgartirgich  $P$  dan oziquantiriladigan o‘zgarmas tok dvigateli  $M$  orqali amalga oshiriladi.



2- rasm.

Jo‘valar orasidagi qorishma  $\ell$  yuqori jo‘vaning holat datchigi orqali o‘lchanadi. Bu datchik o‘z navbatida mexanizm valining burchak holatini raqamli kodga o‘zgartiruvchini ifodalaydi. Har bir o‘tkazish oralig‘i uchun jo‘valardagi qorishmani belgilangan qiymatlari xaqidagi mahlumot  $\ell_z$  dasturli topshiriq beruvchi qurilma PU

ning kodli raqamlarida saqlanadi. U yerdan zarur paytida bu mahlumot uzatiladi. Datchik DP dan va qurilma PU dan signal boshqaruvchi hisoblash qurilmasi UVU ga kiradi. Bu yerda ular (signal va mahlumot signali) solishtirilib, o'rtasidagi farq  $\Delta\ell = \ell - \ell_z$  boshqarishning belgilangan qonuniyati asosida analog signal shakliga ega bo'lgan boshqaruvchi tahsir signali  $U_u$  ga aylantiriladi.

Elektryuritmaning avtomatik boshqarish signali jo'valar uchun qorishmani kiritilishini va joylashtirilishini berilgan aniqlilikda va minimal vaqt oraliqlarida bajarilishini tahminlashlari lozim. Birinchi shart bajarilishi uchun dvigatel tormozlanish rejimiga vaqtning qathiy belgilangan momentida o'tkaziladi. Ikkinci shart esa yuritmani ishga tushirish tezligi hamda tormozlash PI rostlagichli tokni rostlovchi kontur RT ga o'xhash qo'shimchalarni kiritish yo'li bilan, o'zgarmas va ruxsat etilgan maksimal qiymatlardagi tezlanish hamda sekinlatish orqali amalga oshiradi.

Faraz qilaylik, elektryuritma o'zgarmas burchak sekinlashishi  $\varepsilon$  ga ega bo'lgan boshlang'ich tezlik  $\omega_{nach}$  da tormozlansin. U holda tezlik

$$\omega = \omega_{nach} - \varepsilon t$$

qonuniyat bo'yicha kamayadi.

Tormozlanish yakunida  $\omega=0$ , shuning uchun  $t=\omega_{nach}/\varepsilon$ . Shunga mos holda tormozlanishning burchak yo'li

$$\varphi_T = \frac{\omega_{nach} t_T}{2} = \frac{\omega_{nach}^2}{2\varepsilon}$$

Shunday qilib, yuritmani shunday lahzalarda tormozlanishini boshlash kerakki, bu paytda jo'vaning xaqiqiy holati bilan bo'lishi kerak bo'lgan–belgilangan qiymatidagi holati o'rtasidagi farq  $\varphi_t$  ga teng bo'lsin. Bu tizimda, bunday vaqtga raqamli datchik DS, funksional o'zgartirgich kvadrator FP va hisoblash qurilmasi UVU ga ega bo'lgan, hamda quyidagi boshqarish qonuniyatini shakllantiradigan:

$$U_y = \begin{cases} \Delta\ell \geq cw^2 \text{ бўлганда } +U_{\text{д.макс}} \text{ га тенг;} \\ -cw^2 < \Delta\ell < cw^2 \text{ бўлганда } 0 \text{ га тенг;} \\ \Delta\ell \leq -cw^2 \text{ бўлганда } -U_{\text{у.макс}} \text{ га тенг.} \end{cases}$$

teskari bog'lanish yordamida amalga oshiradi.

Aniqlilikni oshirish uchun va yuqorigi jo'va  $|\ell - \ell_z| \leq \delta$  bo'lgandagi belgilangan qiymat yaqinidagi holatida tebranishlarni yo'qotish uchun boshqarish qonuniyati

$$U_y = k(\ell - \ell_z)$$



ravishda chiziqli o'zgaradi. Bu yerda δ-kichik qiymat, k-proporsionallik koeffisientidir.

Teskari bog'lanish datchigiga ega bo'lgan RPD tizimlardan tashqari dasturlari kiritiladigan qadamlovchi dvigatelli ochiq tizimlar ham keng qo'llaniladi.

Qadamlovchi dvigatel (QD) sinxron mashinalarning bir ko'rinishini ifodalab, boshqaruvchi signallar ketma-ketligini kattalikka, hamda o'zining valini burilish tezligini o'zgartiradi. Qadamlovchi dvigatel rotorining harakati oddiy burilishlardan (qadamlardan) iborat bo'lib, ular nodavriy yoki tebranish qonuniyatlari asosida amalga oshiriladi. Burchak burilishlarining yig'indisi impulpslar soniga, burchak tezligi esa uning chastotasiga proporsionaldir.

Qadamlovchi dvigatellar aktiv (qo'zg'aluvchan) va reaktiv (induktorli) rotorli bo'ladi. Rasmida induktorli, to'rt fazali, kuch qadamlovchi dvigatelini ko'ndalang qirqimi keltirilgan. Korpus 1 datchik shixtalangan stator 2 joylashgan. Stator boshqaruv chulg'amlari 4 ga ega bo'lgan sakkizta qutbga ega (diametr bo'yicha qarama-qarshi joylashgan) qutblarning cho'lg'amlari ketma-ket bir fazaga ulangan. Qutblar qirralari soni (juft, ammo to'rtga bo'linmaydi) qadam kattaligini aniqlaydi. Stator tishlari rotor tishlariga nisbatan aralash qutblar tishlari 1/4 tish qismiga siljigandir. Fazalar chulg'amlari umumiy nuqtasi chiqarilgan to'rt qirrali yulduz shaklida ulangan. Umumiy nuqta o'zgarmas tok manbasining minusi bilan birlashadi, faza kirishiga esa doiraviy ketma-ketlikda elektron kommutator orqali kuchlanishni musbat impulpslari beriladi.


Qadamlı yuritmaning dinamik rejimlari boshqaruvchi impulpslar chastotasi o'zgarganda paydo bo'lishi mumkin. Tormozlanish va revers eng og'ir dinamik rejimlardan sanaladi. Dvigatel cho'lg'amlarini elektromagnit inersiyasini hisobga olgan, QD li yuritmaning dinamikasi nochiziqli differensial tenglamalar tizimi orqali yoziladi va u faqat EHM lar yordamida yechilishi mumikn. Muhandis hisoblashlar uchun esa QD li yuritmaning universal oraliq dinamik va yuklama tavsiflari etiladi. Hisoblashlar QD li yuritmalarining quyidagi normallashtirilgan parametrlaridan foydalaniib amalga oishiriladi:  $f_*$ -boshqaruvchi impulpslarning nisbiy chastotasi

$\chi = \Omega_0 T - QD$  cho'lg'amlarining meyorlashtirilgan elektromagnit vaqt doimiysi,

$\beta = \beta_{Q,D} + \beta_{s,t}$ -dempferlanishning ekvivalenti koeffisineti, bu yerda  $\beta_{sh,d} \approx (0,016 \div 0,05)x$

$-QD$  ning xususiy dempferlanish koeffisienti.  $\beta_{s,t}$ -qayishqoq (tezlik) ishqalanish koeffisienti.  $M_s = M_s / M_{maks}$ -yuklamaning nisbiy momenti (quruq yoki faol ishqalanish ko'rinishidagi).





QD li yuritmalarning universal oraliq dinamik tavsiflari quyidagi bog‘liqliklarga ega: ruxsat etilgan chastota  $\chi$  va  $\beta$  ning turlicha qiymatlarida  $M_s$  ning funksiyasidir; o‘tish rejimlaridagi tormozlanishning oraliq chastotasi, reversning oraliq chastotasi  $f_{p,y^*}$  va  $f_p$ , mos holda muvozanat va o‘tish rejimlarida, xuddi shunday,  $\chi$  va  $\beta$  ning turli qiymatlarida  $\mu_s$  ning funksiyasidir. Universal oraliq yuklama tavsiflari maksimal ruxsat etilgan yuklama momenti  $M_s$  ni impulpslar chastotasi  $f_*$  bog‘liq ko‘rinishda qurilgandir.

2-rasmda qadamli yuritma RDB ochiq tizimning funksional sxemasi bitta koordinata uchun ko‘rsatilgan. Bu dastlabki avlod EHM lari orqali boshqarilib, dastur magnit tasma ML ga unitar raqamli kodda yozilgan. Dastur impulpslari magnit boshcha MT orqali o‘qilib, «U» bloklarida kuchaytirgich, elektron kommutator kirishiga (EK)

beriladi. U boshqaruvchi impulpslarni to‘rt fazali QD cho‘lg‘amlariga olib boruvchi, mahlum bir ketma–ketlikda joylashgan to‘rtta kanalga taqsimlaydi.

Ko‘rilayotgan tizimda ishchi organni «olg‘a» yoki «ortga» komandasi bo‘yicha harakatlanishini tahminlash maqsadida magnit tasmaning ikkita yo‘lakchasiдан foydalilaniladi. Qaysi yo‘lakchadagi impulpslar QD cho‘lg‘amlaridagi boshqaruvchi impulpslar ketma–ketligini o‘zgartiradi. Shu bilan QD aylanishi yo‘nalishini o‘zgartirib, mexanik uzatma (masalan, vint) orqali ishlab chiqarish mashinasining ishchi organi RO ga uzatiladi. Dasturning har bir impulpsiga ishchi organni kerakli yo‘nalish bo‘ylab bir qadamga siljishi to‘g‘ri keladi.

QD li RDB tizimini aniqliliginin tahminlash uchun muftasiz mexanik uzatmalardan masalan, sharikli vintli juftlardan, qilinadi kinematik zanjirlarni esa kalta tayyorlanadi. Qator hollarda QD lar ishlab chiqarish mashinalarining ishchi organlarini momentning gidrokuchaytirgichlari orqali harakatga keltiradi. QD li yuritmaning boshqaruv tizimlarida logik va funksional kontaktsiz elementlardan foydalilaniladi. QD ni boshqaruv sxemalari xaqidagi mahlumotlarda batafsil berilgandir.

## XULOSA

Hozirgi globallashuv jarayonida inson hayotining xar bir tarmoqlarida elektronika olaminig yutuqlaridan biri bo‘lgan mikrokontrollerlar keng miqyosda o‘rin egallagan. Misol tariqasida oddiy elektron qo‘l soatlaridan tortib to maishiy ro’zgor buyumlari xamda mukammallahsgan texnik vositalarda xam mikrokontrollerlarni kuzatish mumkin. Ularni bu qadar keng miqyosda qo’llanilishiga sabab – ularni arzon, katta integral sxemalarni kichik xajimga sigdirishi va qayta dasturlash imkon mavjudligidir. Bu qurilmalarni bizning hozirgi kundagi nisbatan ortda qolayotgan sohalarda qo’llash orqali xamma sohalarni rivojlantirish mumkin.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Умаров И.У. Повышение точности обработки на токарных станках путем применения системы автоматического регулирования положения резца: Дис. ...маг. – Андижон, 2015. - 81 б.
2. Levental L. Vvedenie v mikroprotsessori: programmnoe obespechenie, apparatnie sredstva, programmirovanie. Per s angl. M.: 2003.
3. E.Uljaev, U.Ubaydulaev. Avtomatik boshkarishda mikroprotsessorli vositalar va sistemalar. Tajriba ishlarini bajarish uchun metodik kullanmalar(rus va o‘zbek tillarida). Toshkent, 2010 y.



4. Xudoynazarov F.J. Induksion tigel pechlarning fizik asoslari bo‘yicha energiya samaradorlikka erishish. “Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitlarida energetikaning dolzarb muammolari” ilmiy ishlar to’plami Buxoro BMTI. 2022. 484-486-b.
5. ХУДОЙНАЗАРОВ Ф.Ж. САНОАТ КОРХОНАЛАРИДА ИШЛАТИЛАДИГАН ЭЛЕКТР ЮРУТМА ИШИНИНГ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ. “Inson qadrini ulug’lash va faol mahalla yili” ga bag’ishlangan to’plam Buxoro BMTI 2022. 121-b.
6. Ф. Ж. Худойназаров У.А. Аминов Ўзгармас ток машиналарида исрофларни камайтириш усуллари INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL 2022. 29-34-b.
7. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7411806>
8. Худойназаров Ф.Ж. Применение электрических фильтров для очистки хлопка от малых частиц пыли . UNIVERSUM. Москва: 2021. 2(83).C.90-93.
9. <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/11231>
10. Худойназаров Ф.Ж. Шарипов Ш.Н,Муродов Б.Б. Муродова Б.Б.Энергия тежамкор индукцион тигел печларини иссиқлик режимини автоматик бошқариш .“Электр энергиясини ишлаб чиқариш, узатиш ва тақсимлаш хамда ундан оқилона фойдаланишнинг долзарб муаммолари” мавзуусида республика миқёсида илмий-техникавий анжуман илмий ишлар тўплами. Тошкент: 2020. 202-203 б.
11. Худойназаров Ф.Ж. Шарипов Ш.Н. Муродов Б.Б. Индукцион печларни энергия самарадорлигини ошириш чора тадбирлари Замонавий ишлаб чиқаришнинг мухандислик ва технологик муаммоларини инновацион ечимлари. Халқоро илмий анжуман материаллари Бухоро: 2019. 261-262 б.
12. Худойназаров Ф.Ж. Шойимов П. Муродов Б.Б. Музаффаров Ф.Ф. Маккажӯҳори уруғини электр усулида саралаш. Фан ва технологиялар тараққиёти. Илмий техникавий журнали, Бухоро: 2021. №1,32-37 б.
13. Худойназаров Ф.Ж. Жўраев М.Қ. “Электр машиналари” фани тараққиётининг устувор йўналишлари . ARES academic research in educational sciences SJIF 2021 /11. P.1184-1185 <https://cyberleninka.ru/article/n/elektr-mashinalari-fani-taraqqiyotining-ustuvor-yo-nalishlari>
14. Худойназаров Ф.Ж. Кўп энергия сарфлайдиган индукцион печларни энергия самарадорлигини ошириш . “Саноат инженериясининг долзарб муаммолари” Республика илмий-амалий анжумани, материаллари тўплами. Бухоро: 2021. 509-510 б.



15. Худойназаров Ф.Ж. Росабоев А.Т. Шойимов П. Муродов Б.Б. Қишлоқ хўжалик махсулотлари экинлари уруғларини трибоэлектрик қурилмада саралаш. Озиқ-овқат, нефтгаз ва кимё саноатини ривожлантиришнинг долзарб муаммоларини ечишнинг инновацион йўллари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. 2-том, Бухоро: 2020. 71-74 б.
16. Худойназаров Ф.Ж. Хафизов И.И. Шарипов Ш.Н. Саноат корхоналарида заарли газ ва чанглардан тозаловчи энергия самарадор электр фильтрларни кўллаш (монография) Бухоро: “Бухоро нашр”, 2020.108 б.
17. Худойназаров Ф.Ж. ELEKTR YURITMA ASOSLARI FANIN O'RGANISHNING AMALIY AHAMIYATI «Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: nazariy va amaliy izlanishlar» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya <https://doi.org/10.5281/zenodo.7589718>. 78-83 б. //doi.org/10.5281/zenodo.7589718.

